

**G'AFUR G'ULOM IJODINING O'ZBEK ADABIYOT TARAQQIYOTIDAGI
O'RNI.**

Yuldashev Axmad Abdullox xoji o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti talabasi

e-mail: Yuldashev571@gmail.com

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 07.06.2026

Revised: 08.06.2026

Accepted: 09.06.2026

KALIT SO'ZLAR:

*G'afur G'ulom, o'zbek
adabiyoti, realizm,
falsafiy lirika, "Shum
bola", milliy nasr,
tarjima maktabi,
publitsistika.*

*XX asr o'zbek adabiyotining yirik namoyandasi,
O'zbekiston xalq shoiri G'afur G'ulom ijodiy
merosining milliy adabiyot taraqqiyotidagi o'rni va
ahamiyati yoritilgan. Ushbu maqolada adibning
she'riyat, nasr, bolalar adabiyoti hamda
publitsistika sohalariga qo'shgan ulkan hissasi tahlil
qilinadi. Xususan, adibning falsafiy lirika rivojidagi
o'rni, "Shum bola" qissasi misolida milliy hajviy
nasrning shakllanishi hamda jahon adabiyoti
durdonalarini o'zbek tiliga o'girishdagi tarjimonlik
mahorati ilmiy asosda ko'rsatib berilgan. Maqola
adabiyotshunos olimlar, filologiya fakulteti
talabalari va o'zbek adabiyoti tarixi bilan qiziquvchi
keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.*

Har bir millat adabiyoti tarixida shunday buyuk simolar bo'ladiki, ularning ijodi shunchaki bir davr mahsuli bo'lib qolmay, butun boshli milliy tafakkurning o'sish bosqichlarini belgilab beradi. XX asr o'zbek adabiyoti, madaniyati va ilmiy muhiti taraqqiyotida o'chmas iz qoldirgan ana shunday iste'dod sohibi akademik yozuvchi G'afur G'ulomdir.

Toshkentning shaharning Qo'rg'ontegi mahallasida voyaga yetgan. To'qqiz yoshida otasidan, o'n besh yoshida onasida yetim qolgan shoir avval eski maktabda so'ng rus -tuzem maktabida tahsil olgan[2]. Shundan so'ng xalq og'zaki ijodi, mumtoz Sharq she'riyati va jadidchilik harakati shabadalaridan bahramand bo'lgan adib o'zbek adabiyotini shaklan va mazmunan yangilashga muvaffaq bo'ladi. U nafaqat lirik, balki chuqur faylasuf, epchil nosir, mohir tarjimon va zabardast adabiyotshunos olim sifatida o'zbek madaniy boyishida poydevor qo'ygan ijodkorlardan biridir.

G'afur G'ulom o'zbek she'riyatiga xalqona soddalik bilan chuqur intellektual mushohadani muvaffaqiyatli birlashtirgan o'ziga xos poetik maktab yaratdi. Uning she'rlarida insoniyatning borliq, hayot dinamikasi va vaqt mohiyati haqidagi abadiy falsafiy savollariga javob izlanadi.[3]

Shoirning lirik merosida "Vaqt" she'ri alohida falsafiy qarashga ega. Bu asarda vaqt shunchaki o'tib ketuvchi muddat emas, balki inson hayotining qiymati, har bir soniyaning ijtimoiy va ma'naviy mas'uliyati sifatida talqin qilinadi:

G'uncha ochilguncha o'tgan fursatni
Kapalak umriga qiyos etgulik,
Ba'zida bir nafas olg'ulik muddat —
Ming yulduz so'nishi uchun yetgulik.[1]

Ushbu satrda shoir lahzalarning g'animat va hayot naqadar nisbiy ekanligini ta'kidlaydi. Unda bir nafaslik fursatda koinotda ulkan o'zgarishlar yuz berishi orqali inson umrining qisqaligi va vaqtning qadrlash lozimligi badiiy ifodalagan.

Shuningdek, ikkinchi jahon urushi yillarida yaratilgan "Sen yetim emassan" she'ri esa nafaqat o'zbek, balki jahon gumanistik adabiyotining eng yuksak cho'qqilaridan biridir. Urushning dahshatli fojialarini boshidan kechirayotgan bolalarga qarata aytilgan ushbu otashin so'zlar o'zbek xalqining bag'rikengligi, mehmondo'stligi va oliyanobligining aks ettiradi. Urush yillarida fashistlar bosib olgan hududlardan (Rossiya, Ukraina, Belarus) yuz minglab yetim qolgan bolalar O'zbekistonga evakuatsiya qilingan. Toshkent temir yo'l vokzaliga har kuni poyezdlarda och, yalang'och va dahshatdan es-hushini yo'qotgan bolalar kelib tushardi. O'zbek oilalari ularni o'z bag'riga olib, nonini baham ko'rardi. G'afur G'ulom ana shu tarixiy va hayotiy voqealardan qattiq ta'sirlanib, ushbu she'rni yozgan.

Sen yetim emassan, tinchlan, jigarim,
Quyoshday mehribon Vataning – onang,
Zaminday vazminu Mehnatkash, mushfiq
Istagan narsangni tayyorlaguvchi
Xalq bor – otang bor. Cho'chima, jigarim[1]

Ushbu jumlar orqali shoir har bir yetim bolaga murojaat qilar ekan, o'zbek xalqining eng olijanob qadriyatlarini tilga oladi. O'zbek xalqi o'z farzandi och qolsa ham, uyiga kelgan musofir bolaga non beradigan, uning boshini silaydigan xalq ekanligini she'riy satrlarda muhrlaydi.

Bundan tashqari G'afur G'ulom o'zbek professional tarjima maktabining tamal toshini qo'ygan yirik mutafakkirlardandir. U milliy adabiyot faqat o'z qobig'ida chegaralanib qolsa, taraqqiyotdan ortda qolishini chuqur anglagan edi.

Uning Uilyam Shekspirning "Otello" va "Qirol Lir" fojialarini o'zbek tiliga qilgan tarjimalari shunchaki so'zma-so'z o'girish emas, balki shekspirona ruh va falsafani o'zbek tili jozibasi bilan qayta jonlantirish bo'ldi. Shuningdek, Aleksandr Pushkin, Mixail Lermontov, Vladimir Mayakovskiy kabi yozuvchilar asarlarini mahorat bilan

o'zbekchalashtirib, milliy adabiy tilimizning semantik va uslubiy imkoniyatlari naqadar kengligini amalda isbotladi.[4]

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, G'afur G'ulom ijodi o'zbek adabiyoti tarixida butun bir progressiv davrni tashkil qiladi. Shoir, nosir, olim va jamoat arbobi sifatida u millat ma'naviyatini yuksaltirishga butun borlig'ini baxsh etdi. U o'zbek she'riyatiga intellektual va falsafiy ko'lam, nasrga yuksak realistik tasvir hamda milliy yumor, tarjimachilik san'atiga esa professional mas'uliyat olib kirdi. Bugungi kun zamonaviy o'zbek adabiyoti va tili taraqqiyotini G'afur G'ulom poydevor qo'ygan an'analar hamda badiiy tajribasiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami (12 jildlik). – Toshkent: Fan, 1983–1990
2. Yoqubov H. G'afur G'ulom. Hayoti va ijodi. – Toshkent: O'zdnashr, 1959.
3. Karimov N. G'afur G'ulom: Estetik olami va mahorati. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2013.
4. Normatov U. – Toshkent: Yozuvchi, 1995. (G'afur G'ulom nasri tahliliga oid qismlar).